

## HUDUDLARDA KICHIK SANOAT ZONALARINI SAMARALI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

**Jalolova Sarvinoz Ulug'bek qizi**

O'zJOKU, "Mediamenejment va  
mediamarketing" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [jalolovasarvinoz1996@gmail.com](mailto:jalolovasarvinoz1996@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur tezisdá hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritildi. Hududiy ixtisoslashuv, ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsiyalarni jalb etish va sanoat kooperatsiyasining ahamiyati tahlil qilindi. Natijalar kichik sanoat zonalarini sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilganini ko'rsatdi. Taklif etilgan yondashuv hududiy sanoat siyosatining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratdi.

**Kalit so'zlar:** kichik sanoat zonalarini, hududiy rivojlanish, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, infratuzilma, iqtisodiy samaradorlik.

### Аннотация

В тезисе были рассмотрены организационно-экономические механизмы эффективного формирования малых промышленных зон в регионах. Были проанализированы значение территориальной специализации, производственной инфраструктуры, привлечения инвестиций и промышленной кооперации. Полученные результаты показали, что малые промышленные зоны способствовали расширению промышленного производства, созданию новых рабочих мест и поддержке регионального экономического развития. Предложенный подход сформировал научно-практическую основу для повышения эффективности региональной промышленной политики.

**Ключевые слова:** малые промышленные зоны, региональное развитие, инвестиции, промышленная кооперация, инфраструктура, экономическая эффективность.

### Abstract

The thesis examined the organizational and economic mechanisms for the effective development of small industrial zones in the regions. The roles of regional specialization, production infrastructure, investment attraction, and industrial cooperation were analyzed. The findings demonstrated that small industrial zones contributed to expanding industrial production, creating new jobs, and supporting regional economic development. The proposed approach provided a scientific and practical foundation for improving the effectiveness of regional industrial policy and strengthening sustainable industrial growth.

**Keywords:** small industrial zones, regional development, investment, industrial cooperation, infrastructure, economic efficiency.

## KIRISH

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida oqilona joylashtirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Bu borada kichik sanoat zonalarini tashkil etish hududlarda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi [2].

Hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirish, avvalo, ularni joylashtirishda hududiy ixtisoslashuvni hisobga olish, zarur ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish, investitsiya resurslarini jalb etish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bilan bevosita bog'liq [3]. Shu bilan birga, kichik sanoat zonalarini tashkil etishda hududlarning iqtisodiy salohiyati va mavjud resurslaridan foydalanish darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Jahon amaliyoti sanoat zonalarini tashkil etish hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va investitsiya faolligini kuchaytirishda muhim instrument ekanligini ko'rsatmoqda [5]. Shuningdek, sanoat zonalarini samarali shakllantirishda infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi, logistika tizimi va institutsional boshqaruv mexanizmlarining rivojlanganligi hal qiluvchi omil hisoblanadi [6].

## ASOSIY QISM

Hududiy sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish masalalari iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hududiy raqobatbardoshlik nazariyasiga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishining ma'lum hududlarda konsentratsiyalashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [7]. M.Porterning klasterlar nazariyasida korxonalar o'rtasidagi hududiy yaqinlik innovatsiyalar almashinuvi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali raqobat ustunligini ta'minlashi asoslab berilgan [8].

Yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi transport xarajatlarining qisqarishi, mehnat bozori shakllanishi va infratuzilmadan birgalikda foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan [9]. Ushbu yondashuv kichik sanoat zonalarini tashkil etishda hududiy omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sanoat zonalarini samarali shakllantirishda davlat tomonidan yaratilgan institutsional sharoit, soliq va bojxona imtiyozlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [10].

O'zbekiston Respublikasida hududiy sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarish faoliyatini hududlar kesimida kengaytirishda kichik sanoat zonalarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga respublikada 423 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritib, ularda 3 272 ta rezident korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirmoqda [11]. Mazkur ko'rsatkich kichik sanoat zonalarini hududlarda sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishning muhim institutsional shakliga aylanganligini ko'rsatadi.

Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2025-yil yakunlariga ko'ra 18 096,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmi ortib borayotganligini anglatadi[12]. Mazkur zonalarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining 1 325,6 mlrd so'mni tashkil etishi esa ularning investitsion jozibadorligi ortib borayotganligini ko'rsatadi [13].

Kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning muhim ijtimoiy-iqtisodiy natijalaridan biri aholi bandligini ta'minlash bilan bog'liq. Hisobot davri oxiriga kelib mazkur zonalarda 40 021 nafar aholi doimiy ish bilan ta'minlangan bo'lsa, yil davomida 10 665 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan [14]. Bu esa kichik sanoat zonalarini hududlarda mehnat bozorini barqaror rivojlantirishda muhim rol o'ynayotganligini ko'rsatadi.

Kichik sanoat zonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki ham ortib bormoqda. Xususan, mazkur zonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi 4 538,9 mlrd so'mni tashkil etgan [15]. Ushbu holat kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh ekanligini ko'rsatadi.

Kichik sanoat zonalarini shakllantirish jarayonini tahlil qilish ularni joylashtirishda hududiy ixtisoslashuv darajasini yetarli hisobga olinmayotganligi, ayrim hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlanganlik darajasi pastligi hamda investitsiya resurslarini jalb etish mexanizmlarining samaradorligi yetarli emasligini ko'rsatmoqda [16]. Bu esa kichik sanoat zonalarini tashkil etish jarayonida hududlarning iqtisodiy salohiyati va mavjud resurslaridan kompleks foydalanish zarurligini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishda ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish bilan bir qatorda, ularni transport-logistika tizimi bilan integratsiyalash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [17].

Hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirish ularni tashkil etishning aniq tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur jarayon hududiy ixtisoslashuvni hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish, investitsiya resurslarini jalb etish hamda zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish bilan uzviy bog'liqdir [18].

Kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning tashkiliy mexanizmlari, avvalo, ularni hududlarning iqtisodiy salohiyati, xomashyo bazasi, mehnat resurslari va transport-logistika imkoniyatlaridan kelib chiqib joylashtirishni nazarda tutadi. Bu esa sanoat ishlab chiqarishini hududiy jihatdan oqilona tashkil etish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish imkonini beradi [19].

Mazkur jarayonda iqtisodiy mexanizmlarning muhim elementi sifatida investitsiya faoliyatini rag'batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, kichik

sanoat zonalarini tashkil etishda davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish, tijorat banklari kreditlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va mahalliy investitsiya resurslaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi [20]. Bu esa yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq. Zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, transport-logistika tizimi va raqamli boshqaruv platformalarining joriy etilishi kichik sanoat zonalarining investitsion jozibadorligini oshiradi hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi [21].

Kichik sanoat zonalarini boshqarishning samarali institutsional tizimini shakllantirish ularning faoliyat natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda hududiy boshqaruv organlari, tadbirkorlik subyektlari va moliya institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur [22].

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm kichik sanoat zonalarini shakllantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- hududiy ixtisoslashuv asosida sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish;
- zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish;
- investitsiya resurslarini faol jalb etish;
- sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;
- raqamli boshqaruv tizimini joriy etish.

Mazkur mexanizmni amaliyotga joriy etish hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish va hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni qisqartirish imkonini beradi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirish hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish hamda aholi bandligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar natijasida respublikada kichik sanoat zonalar sonining ortib borayotganligi, ularda faoliyat yuritayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmining yuqori sur'atlarda o'sayotganligi hamda yangi ish o'rinlari yaratilayotganligi hududiy sanoatni rivojlantirishda ushbu institutning muhim o'rin tutayotganligini ko'rsatdi [11].

Kichik sanoat zonalarini shakllantirish jarayonini tahlil qilish ularni joylashtirishda hududiy ixtisoslashuv darajasini yetarli darajada hisobga olinmayotganligi, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlanganlik darajasining hududlar kesimida bir xil emasligi hamda investitsiya resurslarini jalb etish mexanizmlarining samaradorligi yetarli emasligini ko'rsatdi [16]. Mazkur holatlar kichik sanoat zonalarini tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Hududlarda kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishni talab etadi:

- kichik sanoat zonalarini hududlarning iqtisodiy salohiyati va mavjud resurslari asosida joylashtirish;
- zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini keng joriy etish;
- sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirish darajasini oshirish;
- kichik sanoat zonalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish.

Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni amaliyotga joriy etish hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va aholi bandligini ta'minlash imkonini beradi. Natijada hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar qisqaradi hamda mahalliy byudjetlar daromad bazasi kengayadi [18].

Kichik sanoat zonalarini samarali shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hududiy sanoat siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv hududlarda sanoat ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va aholi turmush darajasini oshirishning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PQ-2916-son "Kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-3174890>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-fevral 2026-yil PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-8050769>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kichik sanoat zonolari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga oid qarorlari. - Toshkent, 2017-2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari, texnopark va klasterlar faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar. - Toshkent, 2026.
5. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990.
6. Krugman P. Geography and Trade. - Cambridge: MIT Press, 1991.
7. Fujita M., Krugman P., Venables A.J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. - Cambridge: MIT Press, 1999.
8. UNIDO. Industrial Parks for Inclusive and Sustainable Industrial Development. - Vienna, 2020.
9. OECD. Industrial Parks and Regional Development: Policy Lessons. - Paris: OECD Publishing, 2019.

10. World Bank. Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts. - Washington DC, 2017.

11. Ismailov B.X. Hududiy sanoat siyosatini takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmlari. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.

12. Xolmatov N.Sh. Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - 2020. - №4.